



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҲ

Илимий-методикалық журнал

№ 3/3 2025



Isayeva M.A. Leksik-grammatik nutq tuzilishini rivojlantiruvchi o'yinlar va mashqlar
Mavlonova Z.A. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida boshlang'ich sinflarda ona tili kompetensiyasini rivojlantirish

Ismatova N .T., Muminova U. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda pedagogik asoslar

Rajabova N.M. Boshlang'ich sinflarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish metodlari

Mavlonova Z.A. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida boshlang'ich sinflarda ona tili kompetensiyasini rivojlantirish

Seytmuratova V.Sh. Maktabgacha ta'limda o'qitish jarayonida tanqidiy fikrlashning ahamiyati

Kosimova L.U., Nazarmatova D.U. Maktabgacha ta'lim tizimida meritokratik boshqaruvning xalqaro tajribalari va samarali meritokratik boshqaruv amaliyotlari

Xusanova D.B. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyati

Zarimbetoba G .K. Boshlang'ich ta'limda ertaklar mazmunini geymifikatsiyalash yo'llari
Bekniyazov Q. I. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari

Туракулов Б.Н., Yaxshiboyeva X. Бўлажак бошлангич синф ўқувчиларнинг билиш жараёнларга таъсир этувчи омиллар

Тажибаева А. Р. Повышение качества образования в начальных классах Узбекистана с казахским языком обучения на основе многоязычного подхода (на примере грамотности родного языка и свободного владения)

Haydarova M. M. Integrating technology in primary education: opportunities and challenges

ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА МУСИҚА

Doniyorova M.S., Baymetov B.B. Talabalarning falsafiy tafakkurini rivojlantirishda psixologiyaning o'rni

СОЦИАЛЛЫҚ ПЕДАГОГИКА

Saxoddinova M.E. Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash metodikasi (Xorijiy tillarni o'rgatish jarayonida)

Axmetova N .A. Yoshlar orasida iqtisodiy madaniyatni shakllantirish. Ularning muammo va yechimlari

Авлиякулов А.К. Яшил кўникмаларни ривожлантиришда таълимнинг роли

Quvanov Z. Bilimlarni ongli o'zlashtirishda tanqidiy fikrlashni joriy etish yo'llari

Abdullayev Sh.A. Ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga kelayotgan kommunikatsiya uslublarining o'zbek va ingliz tillariga integratsiyasi va uning til madaniyatiga ta'siri

Abdurahmonova F.M. Tarbiya va ta'lim jarayonida psixologiyaning roli

Allayorova S .B. Oliy ta'limning pedagogik innovatsiyalar logistikasi kontekstida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХӘМ СПОРТ

Ziyatov M.N. Stretching-statik mashqlar vositasida 6-7 yoshli bolalarning egiluvchanlik sifatini rivojlantirish texnologiyalari

Muratov M.Sh. Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil qilish va o'tkazishda pedagogik usullar

Muratov M.Sh. Jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishda pedagogik mahoratning ahamiyati

aniqlanadi. Bu holat innovatsion faoliyatni barqaror hodisa sifatida anglash va baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

(5) O'qituvchi niyatining uzluksizligi va barqarorligiga qarab, faoliyat natijasining shakllanishi – bu jarayonda o'quvchining niyatni qabul qilganligi (uning ongida shakllanishi) va barqarorligi (amalga aylanishi) muhim ahamiyatga ega. Natijada, o'qituvchining faoliyati o'quvchi faoliyati bilan mos va uzviy bog'liq bo'lishi lozim.

(6) Innovatsion faoliyatni amalga oshirishga tayyorgarlik va qobiliyatning barqaror ko'rsatkichi – bu o'qituvchining innovatsion faoliyati bilan o'quvchining ijodiy faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikda yaqqol namoyon bo'ladi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish asosida boshlang'ich sinf o'qituvchisining innovatsion faoliyatga tayyorgarlik darajasini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'qituvchisining innovatsion faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlarni amaliy faoliyatda inobatga olish – bir tomondan zarur bo'lsa, ikkinchi tomondan o'qituvchiga innovatsion yo'nalishlar va texnologiyalar mohiyatini tushunish, o'ziga mos individual ish uslubini shakllantirish hamda ijodiy pedagogik maydonini belgilash imkonini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. *Сухомлинский В.А.* Сердце отдаю детям. – Киев: Издательство «Радянська школа», 1969. – 245 с.
2. *Поляков С.Д.* Педагогическая инноватика: от идеи до практики. – М.: Центр Педагогический поиск, 2007. – 176 с.
3. Развитие инновационной деятельности педагога в процессе обучения, воспитания и социализации школьников: методические рекомендации / Сороковых Г.В., Сергеева В.П., Подымова Л.С. - М.:НИЦ ИНФРА-М, 2017. – 52 с.
4. *Потапник М.М.* Как развивать педагогическое творчество. М.: Знание, 1987. 80с.

ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА МУСИҚА

Talabalarning falsafiy tafakkurini rivojlantirishda psixologiyaning o'rni

Doniyorova M.S.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
San'atshunoslik fakulteti,
“Tasviriy san'at” yo'nalishi
1-bosqich magistranti,

Baymetov B.B.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
San'atshunoslik fakulteti,
“Tasviriy san'at va dizayn”
kafedrası professori,

Tayanch so'zlar: Tasviriy san'at, talaba, bipolyar, bordrline, autizm-spektrum, TKSB, falsafiy tafakkur, boshqotirma, o'yisallashtirish, metod.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, студент, биполярное расстройство, пограничное расстройство, аутизм, ОКР, философское мышление, пазл, геймификация, метод.

Keywords: Visual arts, student, bipolar, borderline, autism spectrum, OCD, philosophical thinking, puzzle, gamification, method.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqola tasviriy san'at yo'nalishida tahsil oluvchi, kishilik buzilishi bor talabalar bilan o'ziga hos metodlar bilan ishlash, kreativliklarini yanada oshirishda ularning falsafiy fikrlash qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish masalalariga qaratilgan.

РЕЗЮМЕ:

Данная статья посвящена работе со студентами, обучающимися в области изобразительного искусства и имеющими психологические расстройства. Рассматриваются оригинальные методики, направленные на развитие их креативности и правильное формирование философского мышления. В статье освещаются подходы к эффективной работе со студентами, страдающими от биполярного расстройства, пограничного расстройства личности, расстройств аутистического спектра и других психических состояний.

SUMMARY:

This article focuses on working with students studying in the field of visual arts who have psychological disorders. It explores unique methods aimed at enhancing their creativity and guiding the development of their philosophical thinking abilities. The article covers approaches to working effectively with students affected by bipolar disorder, borderline personality disorder, autism spectrum disorders, and other psychological conditions.

Falsafiy fikrlarga haddan tashqari berilish yoki gibril, zaif bog'langan fikrlar psixotik holatlarda yuzaga kelishi mumkin. Bu holatlar ko'pincha real tushuncha (insight) bilan xayol (delusion) o'rtasidagi chegarani noaniq qiladi.¹³ Bu tarzda fikrlaydigan shaxslar albatta talabalar orasida ham uchraydi mahoratli pedagog bu vaziyatni darhol anglab bu tarz muammoga duchor bo'lgan talabalarni chetlashtirmay ularni to'g'ri yo'naltiradi. Bunga misol tariqasida quyidagi insonlarning so'zlarini misol qilib olishimiz mumkin: Eng so'nggi ozodli - bu o'z kayfiyatingizni tanlash huquqi. Hatto qiyin sharoitlarda ham ma'no izlash - bu ruhiy tirikchilikning asosidir.(Victor Frankl)¹⁴.

"Aqlning chegaralarini buzish - bu yangi dunyo qurishning bir usuli."(Fyodor Dostoyevskiy)¹⁵

"Mening fikrlashim siznikiga o'xshamaydi, lekin bu kamchilik emas. Bu – boshqa daraja."(Naoki Higashida)¹⁶.

Bu taniqli insonlarning har biri ba'zi psixologik buzilishlardan aziyat chekkan ularning bu darajaga kelishiga sabab to'g'ri yo'naltirgan ustoz va murabbiylaridir.Yozuvchi Fyodor Dostevski bipolyar kayfiyat buzilishi , psixiatr Victor Frankl travmadan keying stress buzilishi, autizm spektrum buzilishi bilan kasallangan. Ular kabi bu kasallikdan jabrlangan taniqli rassomlar ham bo'lgan. Vincet van Gogh bipolyar kayfiyat buzilishidan qiynalganligi haqida ko'plab fikrlar mavjud bunga sabab uning barchaga tanish bo'lgan "Yulduzli tun" asari sabab bo'lgan chunki ushbu asarda kayfiyatning keskin o'zgarishini ko'rishimiz mumkin. Autizm spektrum buzilishi bilan qiynalgan rassomlarga Britanyalik

¹³ "Psychopathology: Foundations for a Contemporary Understanding" – James E. Maddux & Barbara A. Winstead

¹⁴ **Victor Frankl(1905-1997)** - avstriyalik psixiatr, nevrolog va faylasuf, **logoterapiya** (ma'no terapiyasi) asoschisi. Uning asosiy g'oyasi - insonning eng kuchli motivatsiyasi "ma'no izlash" ekanligiga asoslangan.

¹⁵ **Fyodr Dostyevski (1821-1881) - rus yozuvchisi, faylasuf va publitsist**, jahon adabiyotining eng buyuk romanchilaridan biri.

¹⁶ **Naoki Higashida (1992-yilda tug'ilgan) - yapon yozuvchisi, avtobiograf va autizm targ'ibotchisi.**

Stephan Wiltshireni o'rnak olishimiz mumkin rassom "inson kamerasi" laqabi bilan tanilgan u autizm tashxisi bilan bolaligidan beri tasviriy san'atga ajoyib asarlari bilan o'z hissasini qo'shib kelmoqda yana bir dunyo bo'yicha impersionistik¹⁷ rasmlari bilan tanilgan Britaniyalik yosh rassom Iris Grace ham aynan autizm spektrum tashxisi bilan tasviriy san'atda o'z izini qoldirib kelmoqda. PTSD(Post-Traumatic stress Disorder) travmadan keying stress buzilishi bilan kasallangan rassomlar ham tasviriy san'atda chuqur izlar qoldirib kelgan jumladan meksikalik rassom Frida Kahlonning asarlarida ochiq oydin PTSD¹⁸ ni yorituvchi element va ramzlarni to'g'ridan-to'g'ri ko'rishimiz mumkin. U yoshligida avtohalokat sababli jiddiy yarlangan va umrining ohirigacha og'riqlardan qiynalib surrealistik¹⁹ asarlarida ham jismoniy va ruhiy azoblarni tasvirlagan. Bu insonlarning barchasining o'z yo'nalishlarini topishida ularning ustozlari katta ro'l o'ynagan. Negaki mahoratli pedagoggina talabalarining o'zlashtirish qobiliyati, antisosyalligini²⁰ farqlab muammoni to'g'ri bartaraf etishga sabab bo'ladi. Nevrologlarning "Farzandingiz past bahoga o'qiyabtim demak nevrologga ko'rsating chunki hamma a'lo bahoga o'qishi kerak" degan fikirlari e'tibordan chetta qoladigan oddiy gap emas. Mening fikrimcha ham oqsoqlik bor joyda albatta muammo bo'ladi.

Tasviriy san'at yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar orasida ham bu muammolardan qiynalyotganlar yo'q emas. Antisosyal, giperaktiv²¹, tachylalia²² kabi belgilari bilan darsda ishtrok etadigan talabalarni mahoratli pedagog bir qarashda farqlab ular bilan individual, o'ziga hos metodlarda shug'ullanib jamoa ichida erkin bo'lishlarini va mahoratlarini oshirish borasida yetakchilik qiladi. Pedagoglik mahoratga ega bo'lmagan qo'shtirnoq ichidagi mobingchi²³ "ustoz"larimiz esa bu muammoli talabalarni chetlashtirish, kamsitish va talabalarning o'zlarini qadrsiz va keraksiz buyumdek his qilishlari, jamiyatning keraksiz parchasidek o'ylashlariga sabab bo'lib qolmay ruhiy buzilishlarini ortqa qaytarib bo'lmaydigan kasalliklarga aylanib ketishiga vosita ro'lini o'tab berishlari barchamizga ayon. Chunki pedagog faqatgina dars o'tib beruvchi shaxs emas jamiyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan insondir.

¹⁷ Impersionizm-Bu XIX asr fransuz badiiy oqimi bo'lib ranglarning va yorug'likning lahzali tasirini aks ettirishga asoslangan

¹⁸ PTSD - Travmadan keying stress buzilishi

¹⁹ Surrealistik uslub - bu real hayotdagi predmetlar va tasvirlarni tushga o'xshash, haqiqatdan yiroq holatda ifodalovchi san'at yo'nalishidir.

²⁰ **Antisosyallik** - bu odamning jamiyatdagi normal ijtimoiy qoidalar va axloqiy me'yorlarga zid ravishda harakat qilishi, ya'ni ijtimoiy munosabatlardan chetlashishi yoki ularga qarshi chiqishini bildiradi.

²¹ **Giperaktiv** - bu inson (odatda bola) juda serharakat, tinimsiz, betinch, diqqatini jamlay olmaydigan holatga aytiladi.

²² **Tachylalia** - bu **nutq buzilishi** turi bo'lib, odamning **juda tez va shoshqaloq gapirishi** bilan tavsiflanadi. Bu holatda odamning so'zlari tushunarsiz, chalkash yoki bir-biriga qo'shib ketgan bo'lishi mumkin.

²³ **Mobing** - bu ish joyida yoki jamoada **biror odamga nisbatan doimiy ruhiy bosim yoki tazyiq o'tkazish** holatini anglatadi. Bu psixologik zo'ravonlik shaklidir.

Tasviriy san'at talabalarining amaliy mashg'ulotlar va fanlarga bo'lgan qiziqishlari so'nmasligi



uchun biz pedagoglar xorijiy inovatsion metodlarni o'rganib o'zimizning sohaga moslashtirgan holda darslarni yanada qiziqarli o'tishimiz mumkin. Misol tariqasida ayni paytda o'zim qo'llayotgan "Bo'laklardan falsafa" nomli metodim yuqorida aytib o'tgan muammoli talabalarni ham harakatga keltiribgina

qolmay ularni jamoa ichiga qo'shilishiga sabab bo'ladi. Ushbu metod ikki bosqichdan iborat bo'lib rassomlarning surrealizm, abstrakt²⁴ kabi uslublarda va boshqa falsafiy ma'nolarga ega bo'lgan asarlarning "boshqotirma" (pazl) ko'rinishidagi holatini yig'ish va jamlangan boshqotirmaning har bir talaba falsafiy tahlilini aytishlari kerak bo'ladi. Metodning maqsadi talabalarni falsafiy va mantiqiy fikirlash salohiyatlarini oshirish, vizual-makonsal intellektlarini yuksalishga hissa qo'shishdir. Boshqotirma yig'ish orqali talabalarining diqqati yanada kuchayish bilan birga yig'ish jarayonida boshqotirmadagi jamlashga qiynalgan qisimlariga nisbatan rassom nega, nima sababdan, qanday qilib degan falsafiy savollar kelib chiqishiga turtki bo'ladi. Metodning bu qismi bordirline²⁵, bipolyar²⁶, autizm²⁷, TKSB(PTSD)²⁸ buzilishlari bo'lgan talabalarga ham ancha foydali bo'ladi. Chunki bipolyar buzilishi bo'lgan talabalar maniya²⁹ davrida haddan ziyod g'ayrat va fikirlarga to'lib toshadilar. Shu sababdan bu davrda abstrakt tafakkur, metaforalar, murakkab g'oyalar, gibrid fikirlarini to'g'ri yo'naltiradi.

Tasviriy san'at talabalarining orasida bordirliney buzilishiga duchor bo'lgan talabalar ham uchraydi ularni ba'zi belgilardan ajratishimiz mumkin. Stress ostida real bo'lmagan qo'rquv yoki



paranoyaga tushadilar. O'z o'ziga zarar berish, diqqat to'plashda qiyinalish kabi belgilar ko'rsatadilar.

²⁴ Abstrakt - bu real obyektlarni aniq tasvirlashdan vos kechib, shakl, rang, chiziq va kompazitsiya orqali g'oyalar va hissiyotlarni ifodalovchi badiiy uslubdir

²⁵ Bordirliney - odamning hissiyotlari, munosabatlari, va o'zini qadrlashi juda beqaror bo'lgan ruhiy holat

²⁶ Bipolyar - bu kayfiyatning haddan tashqari keskin o'zgarishi bilan tafsiflanadigan ruhiy kasallik

²⁷ Autizm - bu miyya rivojlanishining nodir holati bo'lib, kishining ijtimoiy aloqa, munosabatlar va sezgilarni boshqalarga nisbatan farqli idrok etishiga olib keladigan spektrup buzilishidir.

²⁸ TKSB - bu travmadan keying stress buzilishi bo'lib kishida travmaga sabab bo'luvchi tabiiy ofatlar, halokatlar va boshqalarning halokatiga shohid bo'lganidan so'ng yuzaga keladigan ruhiy buzilish.

²⁹ Maniya - bu ruhiy holat bo'lib, u g'ayritabiiy darajadagi quvvat, haddan tashqari quvonch, tez gapirish, katta rejalar, uyqusizlik, vaqti-vaqti bilan real bo'lmagan ishonchlar bilan tavsiflanadi.

Autism spektrum buzilishi bilan og'rigan talabalarni esa suhbatdoshining ko'zlariga qaramaslik yoki qisqa vaqtdan so'ng ko'z bog'lanishini uzishlari, boshqalarning mimika, ohang va kayfiyatlarini talqin qila olmasliklari, muloqotda zaiflik, giperfaollik, nurga tasirchanlik, diqqat yetishmovchiligi kabi belgilar ko'rsatadilar.

Travmadan keyingi stress buzilishini esa giperfaollik, fikirlarni nazorat qila olmaslik, odamlardan qochish, doimiy asabiylik, o'zini aybdor his qilish, dunyoga nisbatan begonalashish, qiziqqan faoliyatlaridan zavq ololmaslik, meyyordan tashqari reaksiyalar orqali farqlay olishimiz mumkin.

Bu ruhiy va spektrum buzilishlarining bir-biri bilan bog'liqligi shundaki ushbu ruhiy buzilishlarga ega bo'lgan talabalarining barchasi falsafiy, abstrakt tafakkurlari kuchli va gibridduragay fikirlay olish qobiliyatlari boshqalarga nisbatan kuchli bo'ladi. Ularning bu qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltira olsak tasviriy san'atni o'qitishda yangi metod, rasm chizishda yangicha uslub, kreativ va noodatiy g'oyalar aynan shu talabalarimizdan chiqadi. Chunki yuqorida aytib o'tilgan kishilik buzilishlari miyyani tanaffussiz faoliyatda tutishi sababli yaratuvchanlik oshadi. Chetdan qaragan sohadan yiroq insonlar uchun bu metod oddiy o'yindek tuyilishi tabiiy. Biroq o'yin bilan o'yinsallashtirishning orasida tafovut bor. Muhandis sinon tasviriy san'at universiteti fan instituti talabasi Elif Gurcinarning doktorlik desertatsiyasi uchun olib borgan tadqiqotiga ko'ra o'yin tushunchasi, belgilangan qoidalar doirasida, ma'lum bir maqsadga erishishga yo'naltirilgan, o'yinni o'ynovchi shaxslarning o'zlari yoki boshqalar bilan muayyan kurashga kirishgan va o'yin elementlarini o'z ichiga olgan faoliyatlar majmuasi sifatida ta'riflanadi.

O'yin mavzusiga kirishishda, avvalo quyidagi uchta alohida tushunchani tushuntirish zarur:

O'yinsallashtirish (Gamifikatsiya), Jiddiy O'yinlar va O'yin Asosidagi Ta'lim tushunchalari. Ushbu tushunchalarning farqlarini aniq belgilab olish va tushunish mavjud ta'lim modellari tahlil qilinayotganda hamda yangi model ishlab chiqilayotganda foydali bo'ladi.

O'yinsallashtirish (Gamifikatsiya)—"Foydalanuvchilarga umumiy qiymat yaratishni qo'llab-quvvatlash uchun o'yin tajribasini taqdim etuvchi xizmatni ishlab chiqish jarayoni" [Huotari va Hamari, 2017]. Ta'limda gamifikatsiya — bu ta'lim kontekstida o'yin elementlaridan foydalanishdir. Bu elementlar zavq-shavq uchun emas, balki ta'limni boyitish maqsadida ballar, rag'batlar, tezkor fikr-mulohaza, tan olish, xato qilish erkinligi kabi tamoyillarni qo'llash orqali ishlatiladi [Deterding va boshqalar, 2011]. Demak, oyunsallik — bu o'yin emas, balki o'yin elementlari qo'llanilgan, lekin ko'ngilochar bo'lmagan faoliyatlardir.

Jiddiy O'yinlar (Serious Games)—bu atama, ko'ngilocharlik o'rniga muammo yechish, o'qitish, o'rganish, muloqot qilish, simulyatsiya qilish kabi maqsadlarga xizmat qiladigan o'yinlar uchun ishlatiladi. Ular ko'pincha video o'yinlar bilan bir xil media texnologiyalaridan foydalanadilar va kompyuter asosida bo'lganliklari sababli "o'yin" deb ataladi [Pilote va Chiniara, 2019].

O'yin Asosidagi Ta'lim (Game-Based Learning)—umumiy qilib aytganda o'yinlar yordamida o'qitish metodidir va bu o'yinlar odatda o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqiladi. Ular texnologiyalardan foydalanish maqsadida raqamli shaklda bo'lishi mumkin, biroq bu o'yinlarning raqamli bo'lishi shart emas [Pho va Dinscore, 2015; Escamilla va boshqalar, 2016].

O'yin va ta'limni yuqorida aytib o'tilgan shakllarda qo'llashning foydalariga misol keltiradigan bo'lsak: Vena shahrida o'tkazilgan bir tadqiqot o'yin asosidagi ta'limning foydalarini tahlil qilgan, natijada talabalar motivatsiya nuqtai nazaridan ijobiy ta'sirlangani, o'yinni qiziqarli deb topib, uni yanada rivojlantirish uchun takliflar bildirgani yozilgan [Pohl, Rester va Judmaier, 2009]. 2018 yilda o'tkazilgan bir konferensiyada jiddiy o'yinlarning ta'limga foydasi bor-yo'qligi o'rganilgan va natijada jiddiy o'yinlar ishonchli hamda samarali ta'lim usuli ekani, foydalanuvchilar ko'proq qiziqish bildirgani va natijada tushunchalarni yaxshiroq eslab qolganliklari aniqlangan [Sudarmilah va boshqalar, 2018].³⁰

Tasviriy san'at nazariy va amaliy mashg'ulot darslarini o'qitishda bu tarz o'yinsallashtirilgan metodlarni tadqiq qilish va yaratish orqali talabalarni oz bo'lsada ruhiy charchoqdan uzoq tutgan bo'lamiz. Shu bilan birga ularning kreativligini oshirishga hissa qo'shamiz. Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar nafaqat bilim, balki ruhiy va psixologik qo'llab-quvvatlashga ham muhtoj. Ayniqsa, tasviriy san'at yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar orasida psixologik spektrum buzilishlariga ega bo'lgan shaxslar ko'proq uchraydi. Bu kabi holatlarda, talabalarni chetlashtirish yoki kamsitish o'rniga, ularning iqtidorini aniqlab, to'g'ri yo'naltirish mahoratli pedagogning asosiy vazifasidir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, o'yinsallashtirish (gamifikatsiya), jiddiy o'yinlar va o'yin asosidagi ta'lim kabi ilg'or ta'limiy metodlar aynan shu muammolarga duchor bo'lgan talabalar uchun kuchli pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Bu metodlar nafaqat ta'lim jarayonini jonlantiradi, balki talabalarni psixologik jihatdan ham qo'llab-quvvatlab, ularning o'ziga bo'lgan ishonchlarini tiklaydi, jamoadagi o'rnini mustahkamlaydi va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqaradi. "Bo'laklardan falsafa" metodikasi bunga yaqqol misoldir. U nafaqat talabalarning falsafiy va mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi, balki vizual-makonsal intellektlarini ham yuksaltirishga xizmat qiladi. Puzzle ko'rinishida yig'ilgan asarlarning tahlili orqali talabalar nafaqat diqqat-e'tiborini, balki abstrakt fikrlash qobiliyatini, estetik dunyoqarashini va hissiy barqarorligini ham rivojlantiradi.

Bu kabi metodlar bordirlayn, bipolyar, autizm, yoki PTSD kabi buzilishlarga ega bo'lgan talabalar uchun foydali bo'ladi. Chunki bu buzilishlarga ega insonlarda ijodkorlik, gibrid fikrlash, chuqur estetik sezuvchanlik kabi jihatlar odatda yuqori bo'ladi. Ularni to'g'ri yo'naltirgan holda tasviriy san'atda yangi uslub va metodlar yaratilishiga, innovatsion yondashuvlarning shakllanishiga zamin yaratiladi.

Shunday ekan, mahoratli pedagog faqat dars beruvchi emas, balki har bir talabani alohida qadrllovchi, ularning ichki dunyosini anglaydigan, jamiyatda o'rnini topishiga sababchi bo'ladigan shaxsdir. Pedagogning ijobiy yondashuvi ko'pincha talabaning butun hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yakuniy xulosa shuki, o'yin elementlari asosida shakllangan pedagogik yondashuvlar tasviriy san'at kabi ijodiy sohalarida nafaqat o'quv jarayonini samaraliroq qiladi, balki talabalarni ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning g'ayratini oshirish, mustaqil fikr yuritishga undash va salohiyatini yuzaga chiqarish yo'lida beqiyos imkoniyatlar yaratadi. Bu esa nafaqat ta'lim sifatini, balki jamiyatimiz kelajagini ham porloq qiladi.

³⁰ [TezSablon](#)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Artirilmiş gerçeklik ortamında hazırlanmış eğitsel bir oyun ile üniversite öğrencilerinin zihinde döndürme ve kesit alma yeteneklerinin geliştirilmesi" doktora tezi Elif Gürçinar. (21 sayfa)
2. Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (5th ed)
3. Pilote va Chiniara, 2019
4. Pohl, Rester va Judmaier, 2009
5. Pho va Dinscore, 2015; Escamilla va boshqalar, 2016.
6. Pilote va Chiniara, 2019
7. Deterding va boshqalar, 2011

СОЦИАЛЛЫҚ ПЕДАГОГИКА

Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash metodikasi (Xorijiy tillarni o'rgatish jarayonida)

Saxoddinova Muhayyo Eshmamat qizi

Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada xorijiy tillarni o'rgatish jarayonida madaniyatshunoslik yondashuvining ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Global ta'lim muhitida o'quvchilarda nafaqat lingvistik bilim, balki madaniyatlararo kompetensiya va umuminsoniy qadriyatlar – insonparvarlik, bag'rikenglik, hurmat, tinchliksevarlikni shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Maqolada aynan xorijiy til darslarida ushbu qadriyatlarni o'rgatishning metodik asoslari ishlab chiqilgan. Eksperimental tadqiqot natijalari asosida o'quvchilarning o'zaro hurmat, madaniy xilma-xillikka ijobiy munosabati shakllanayotgani isbotlangan. Shuningdek, maqolada interfaol va innovatsion usullar orqali madaniyatshunoslik komponentlarini dars jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan.

Methodology of educating pupils in the spirit of universal human values based on a cultural studies approach (in the process of teaching foreign languages)

Abstract. This scientific article thoroughly examines the significance of a cultural studies approach in the process of teaching foreign languages. In today's global educational landscape, it is essential to develop not only students' linguistic abilities but also their intercultural competence and understanding of universal human values such as humanism, tolerance, respect, and peace. The article proposes a methodology for integrating these values into foreign language lessons. Based on experimental research conducted in Uzbek secondary schools, the findings demonstrate that students develop a greater appreciation for cultural diversity and mutual respect. The article also provides practical recommendations for teachers on how to incorporate cultural elements through interactive and innovative teaching methods to foster holistic personality development alongside language acquisition.

Методика воспитания школьников в духе универсальных ценностей на основе культурологического подхода (в процессе обучения иностранным языкам)

Аннотация. В данной научной статье всесторонне анализируется значение культурологического подхода в процессе преподавания иностранных языков. В условиях глобализации особенно важно развивать у учащихся не только языковые навыки, но и межкультурную компетентность, а также формировать у них общечеловеческие ценности, такие как гуманизм, толерантность, уважение и стремление к миру. В статье предложена методика внедрения этих ценностей в уроки иностранных языков. Экспериментальное